

PUDRAT SHARTNOMASI № 2

«24» Iyun 2022 yil

Rishton shaxri

Ikki tomonlama xo'jalik munosabatlarini ifodolovchi mazkur shartnoma Nizom asosida ish yurituvchi «**Abdullaev Axadjon**» xususiy korxonasi nomidan raxbari X.SHukurov (keyingi o'rinlarda «**Pudratchi**» deb ataladi) birinchi tomon va ikkinchi tomon amaldagi nizomaga asosan ish ko'ruvchi Rishton tuman **Rishton tuman tibbiyot birlashmasi** (kelgusida «**Buyurtmachi**» deb ataladi) rahbari **A.Usmanov** o'rtalarida quyidagi maksadlarda shartnoma tuzildi.

1.SHARTNOMANING MAZMUNI

1.1. «**Buyurtmachi**» ning topshirigiga kura «**Pudratchi**» Rishton tuman tibbiyot birlashmasiga qarashli Jalayer qishlog'idagi 100-sonli oilaviy poliklinika binosi ob'ektida «**Buyurtmachi**» taqdim etgan smeta loyiha xujjatlariga asosan 100-sonli oilaviy poliklinika binosini joriy ta'mirlash ishlarini olib boradi.

1.2. «**Pudratchi**» zimmasiga o'z materiallaridan foydalanib ta'mirlash ishlarini bajarilishi majburiyatini oladi.«**Buyurtmachi**» esa boskichma boskich bajarilgan ish uchun takdim etilgan F2, F3 xujjatlari buyicha xak tulash majburiyatini oladi.

2. SHARTNOMANING BAXOSI

2.1. SHartnomaning umumiy baxosi 142 456 000 (Bir yuz qriq ikki million tort yuz ellik olti ming) so'mni tashkil qiladi; **QQS bilan**

3. TULOV SHARTLARI

3.1 Ushbu shartnoma bo'yicha «**Buyurtmachi**» 142 456 000 (Bir yuz qriq ikki million tort yuz ellik olti ming) so'm byudjet mablag'lari xisobidan amalga oshiradi;

3.2 SHartnomani taraflar imzolagan kundan boshlab 10 kun ichida oldindan bajariladigan ishlar qiymatining 30 foizi miqdorida «**Pudratchi**» xisob raqamiga xaq o'tkazilib beriladi;

3.3 «**Buyurtmachi**» bajarilgan ishlarni «**Pudratchi**» tomonidan F-2, F-3 xujjatlarni tasdiqlagandan so'ng solishtirma dalolatnoma va xisob fakturalarga asosan qabul qilib oladi;

3.4 SHartnoma bo'icha oxirgi xisob kitob ish to'liq tamomlangandan so'ng (bunda ishni qabul qilib olish jarayonida aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etishni xam qo'shib) bir oydan kechiktirmay «**Buyurtmachi**» F-2 xujjatiga asosan tekshirib ko'rgandan so'ng F-3 xujjatiga muvofik to'lovni to'lab beradi.

4. MAJBURIYATLARNI BAJARISH MUDDATLARI

4.1«**Pudratchi**»ushbu shartnomaning 1-bo'limida ko'zda tutilgan ishlarni belgilangan muddatlarda bajaradi.

4.2 «**Pudratchi**»«**Buyurtmachi**» tomonidan bajarilgan ishga belgilangan muddatda xaq to'lash mahalliy byudjetdan muntazam ravishda mablag' ajratib berishga bog'liq ekanligini, shu sababdan bajarilgan ishlar xaqini to'lab berish muddati 6 (olti) oygacha cho'zilishi mumkin. Bu maddat bajarilgan ishlar pudrat ishi yakunini maxsus komisiya (Davlat komissiyasi) tomonidan qabul qilib olingan sanadan xisobga olinadi;

5. TARAFLARNING MAJBURIYATLARI

5.1. «**Pudratchi**»:

5.1.1. O'z kuchi va vositasi bilan kalendar ish rejasida nazarda tutilgan barcha ishlarni to'la xajmda va muddatda bajarilishi va tegishli loyiha xujjatlaridagi xolatda ishlarni «**Buyurtmachi**» ga topshirishi;

5.1.2. Ob'ektga loyixaga binoan zarur bulgan materiallarni, konstruksiyalarni, butlovchi ashyolarni etkazib berish va ularni kabul kilish, tushirish, taxlil xamda saklashni amalga oshirish;

5.1.3. Ushbu shartnoma buyicha ishlarni bajarish uchun jalb kilinadigan maxsus tashkilotlar bilan subpudrat shartnomalarni tuzgani tugrisida «**Buyurtmachi**» ga axborot berishi va u tomonidan ishlarning bajarilish yuzasidan nazoratni ta'minlashi;

5.1.4 Texnika xavfsizligi, yong'in xavfsizligi va ob'ektni qo'riqlash bo'yicha zaruriy chora tadbirlarning bajarilishini ta'minlashi;

5.2. «**Buyurtmachi**»:

5.2.1. Kalendar ish rejasida belgilangan xajmda va muddatda ob'ektni «**Pudratchi**» ga topshirishi;

5.2.2. Ushbu shartnoma buyicha belgilangan mikdorda va muddatda «**Pudratchi**» ga xaq tulashi;

5.2.3. «**Pudratchi**» dan yozma xabarnoma olgan sanadan boshlab ikki xafta ichidaob'ektni kabul kilishi shart.

6. TARAFLARNING JAVOGBARLIGI

6.1. «**Buyurtmachi**» bajarilgan pudrat ishlari maxsus komissiya tomonidan qabul qilingandan boshlab 6 (olti) oygacha xaqni to'lab bermasa kechiktirilgan xar bir kun uchun bajarilgan ishning 0,4% miqdorida penya tulaydi.

6.2. «**Pudratchi**» shartnoma shartlarini buzsa, belgigangan muddatda pudrat ishlarini tugatmasa, kechiktirilgan xar bir kun uchun kuzda tutilgan ishning 0,5 % miqdorida penya tulaydi;

6.3. Jami tomonlardan undirilgan penya summasi nizoli summaning 50 % dan oshmasligi lozim.

7. FORS-MAJOR XOLATLARI

7.1. Taraflarning birortasi xam boshqa tarafning oldida ushbu shartnoma bo'yicha olgan majburiyatlarni taraflarni erki va istagidan tashqari paydo bo'lgan va ularni oldindan ko'ra bilishi yoki bartaraf etishi mumkin bo'lmagan xolatlar, bunga qo'shib urish e'lon qilinishi yoki amalda boshlanganligi, fuqarolik tartibsizligi, suv bosishi, yong'in va boshqa tabiiy ofat bilan bog'liq xolda bajarmaganliklari uchun javobgar bo'lmaydi;

7.2 Bartaraf qilib bo'lmaydigan kuchlarni mavjudligi yoki amalda davom etayotganligi O'zbekiston Respublikasi xukumatining shunga oid qarorlari yoki boshqa vakolatli organlar tomonidan berilgan guvoxonmalari uning etarli darajadagi tasdig'i bo'lib xisoblanadi.

7.3 O'z majburiyatini bajarmagan taraf shartnoma bo'yicha majburiyatini bajarishga, uni ta'sir ko'rsatishi yoki monelik qilish to'g'risida boshqa tarafga imkon qadar tezda xabar berishi lozim.

7.4 Agar bartaraf qilib bo'lmaydigan kuchlar uch oy davomida muntazam ta'sir etayotgan bo'lsada tugash belgilari aniqlanmasa, «**Buyurtmachi**» «**Pudratchi**» boshqa tarafga xabar berish yo'li bilan ushbu shartnomani bekor qilish mumkin.

8. NIZOLARNI XAL ETISH TARTIBI

8.1. Taraflar urtasida ushbu shartnoma bo'yicha yoki u bilan bog'lik paydo buladigan barcha nizolar yoki kelishmovchiliklar taraflar urtasida muzokara yuli bilan xal kilinadi;

8.2. Agar kelishmovchiliklarni muzokara yuli bilan xal kilib bulmasa, ular konun xujjatlarida belgilangan tartibda **Iqtisodiy sudi** orqali xal qilinadi.

9. SHARTNOMAGA KO'SHIMCHA VA O'ZGARTIRISHLAR KIRITISH TARTIBI

9.1. Ushbu shartnomaga xarkanday kiritilgan kushimcha va uzgartirishlar yozma ravishda rasmiylashtirilib, xar ikala taraf imzolagan xollardagina xakikiy kuchga ega buladi;

9.2 SHartnomani muddatidan oldin bekor qilish taraflarning kelishuvi bo'yicha yoxud O'zbekiston Respublikasining amaldagi fuqarolik kodekisi va qonun xujjatlarida nazarda tutilgan asoslar bo'yicha etkazilgan zararlarni qoplash bilan amalga oshirish mumkin;

9.3 «**Buyurtmachi**» quyidagi xollarda shartnomani bekor qilishga xaqli:

- «**Pudratchi**» ning ayibi bilan ishlarning borishini sustkashlik bilan to'xtatib turilishi, ya'ni ushbu shartnomadagi ishlarni tomom bo'lish muddati bir oydan ko'pga oshib ketganda;
- «**Pudratchi**»ning shartnoma shartlarini buzish natijasida ko'rsatilgan ishlarni sifati pasayganda

9.4 «**Pudratchi**» quyidagi xollarda shartnomani bekor qilishga xaqli:

- «**Byurtmachi**» tomonidan «**Pudratchi**»ga bog'liq bo'lmagan sabablar bo'icha qurilish montaj ishlarining borishini bir oydan oshmagan muddatga to'xtatib turganda;
- «**Byurtmachi**» tomonidan loyiha xujjatlariga o'zgartirishlar kiritish bilan bog'liq xolda ishlarning bahosi 10%idan ko'pga kamayganda;
- «**Byurtmachi**» tomonidan keyinchalik qurilishni moliyalash imkoni yo'qotilganda.

9.5 «**Byurtmachi**» va «**Pudratchi**»ning birgalikda qarori bo'yicha shartnoma bekor qilinganda, «**Byurtmachi**»ga tugatilmagan qurilish topshiriladi. «**Byurtmachi**» esa «**Pudratchi**»ga ular tomonidan aniqlangan bajarilgan ishlar xajmi qiymatini to'laydi.

9.6 SHartnoma bekor qilishga qaror qilgan taraf boshqa tarafga yozma xabarnoma yuboradi.

9.7. Ushbu shartnoma "**24**" **Iyun 2022 yildan, 31 dekabr 2022** yilgacha amal qiladi.

10. KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH BO'YICHA TOMONLARNING MAJBURIYATLARI

10.1. Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishda tomonlar korrupsiyaga qarshi kurashish majburiyatini oladilarme'yoriy hujjatlarga, shu jumladan amaldagi qonunlarga rioya etilishini ta'minlaydi; ya'ni bir-birining tomonlari yoki davlat mansabdor shaxsiga pora berish yoki vositachilik qilish, moddiy yokinomoddiy manfaatlardan qochish kerak. Tomonlar bunday xatti-harakatlarning oldini olish uchun choralar ko'rilishini kafolatlaydi.

10.2 Korrupsiyaga qarshi kurash qoidalari buzilganligi yoki asosli shubha tug'ilganligi to'g'risida tomonlar darhol yozma ravishda xabardor qilishlari shart. Vir-birlarini shaxsan (elektron pochta orqali) yoki ishonch telefoni orqali xabardor qilish majburiyatidir. Bunday holda, tomonlar vaziyatni aniqlashtirish uchun yozma tushuntirishni talab qilishga haqli. mulkdor va murojaatni qabul qilgan tomon 10 (o'n) ish kuni ichida tushuntirish berishga yoki o'z fikrini bildirishga majburdir.

10.3 Ushbu bobning talablari bajarilmaganda, shu jumladan korrupsiya xavfini belgilangan muddatlarda bartaraf etilgan taqdirda taraflar tomonidan ko'rilgan choralar korrupsiya holatining pasayishiga olib keladi. Aks holda, boshqa tomon shartnomani bekor qilishga yoki uning bajarilishini to'xtatib qo'yishga haqli

10.4 Sotib oluvchiga yetkazib berilgan maxsulot uchun barcha tegishli hujjatlarni taqdim etgan holda xisob-varaqni

rasmiylashtirish sanasi Sotib oluvchi tomonidan tovarlarni qabul qilish kuni hisoblanadi.

10.5 Ushbu shartnomaning barcha shartlari kalendar kunidan keyingi kun yoki muddat boshlanishini aniqlagan voqea sodir bo'lgan kundan boshlab hisoblanadi

11. BOSHQA SHARTLAR.

11.1 Obe'ktlar va boshqa injenerlik tizimlari, jixozlar materiallar xamda ishlarning me'yorida ishlashga kafolatlangan muddati, uni uchinchi shaxslar tarafdin kuzlangan niyatda shikast etkazgan xollari bundan istisno qilinadi, obe'ktga qabul qilish to'g'risida daloltnomani taraflar imzolagan vaqtdan boshlab bir oy davomida belgilanadi.

11.2 Agar obe'ktning kafolatlangan foydalanish davomida uning me'yorida foydalanishga yo'l bermaydigan kamchiliklar aniqlansa, kafolat muddati ular bartaraf qilingunga qadar bo'lgan vaqtga uzaytiriladi.

11.3 Kamchiliklarni mavjudligi va ularni bartaraf qilish muddatlari «Pudratchi» va «Byurmachi»ning ikki tomonlama daloltnomasida aks ettiriladi;

11.4 Agar «Pudratchi» aniqlangan kamchiliklarni daloltnomada ko'rsatilgan muddat ichida bajarilgan ishlarning bunga jixozlarni xam qo'shib, kamchiliklarni bartaraf qilmasa, ularni «Byurmachi» boshqa bajaruvchining kuchi bilan xarajatlarni «Pudratchi» to'lashi orqali bartaraf qilishga xaqli;

11.5 «Pudratchi» aniqlangan kamchiliklarni tasdiqlash ish daloltnomasini tuzish yoki imzolashdan bosh tortganda, «Byurmachi» malaka ekspertizasini tayinlaydi ekspertiza kamchiliklar va ularni tuslarini aks ettirish bo'yicha tegishla daloltnoma tuzadi xamda tarafni mazkur masala bo'yicha xo'jalik sudiga murojaat qilish xuquqini istisno qilmaydi;

11.6 «Pudratchi» qurilish obe'ktning loyiha xujjatlarini yoki uning ajiralmas qismlarini «Byurmachi»ning yozma ruxsatisiz uchinchi shaxslarga sotish yoki berish xuquqiga ega emas;

11.7 «Pudratchi»ning aybi bilan obe'ktni qurish natijasida uchinchi shaxslarga etkazilgan zarar «Pudratchi» tomonidan, «Byurmachi»ning aybi bilan bo'lsa, «Byurmachi» tomonidan tovon to'lanadi. «Pudratchi» barcha xollarda, xatto tegishli xarajatlarni «Byurmachi» qoplagan taqdirda xam etkazilgan zararni tugatish uchun tezkor choralarni ko'radi.

11.8 Ushbu shartnoma ikki nusxada tuzilib, ikkalasi xam bir xil yuridik kuchga ega bo'ladi.

11.9 Ushbu shartnoma G'aznachilik bo'linmasi ro'yixatidan o'tgandan so'ng qonuniy kuchga egadir.

12. TOMONLARNING YURIDIK MANZILLARI VA BANK REKVIZITLARI

«Pudratchi»

«Abdullaev Axadjon» xususiy korxonasi

Manzili: Rishton tuman Oq-er qishlog'i


Tel: +99891-1585320

ATB Xalq bank Rishton filiali

X/R: 20208000500230510001

MFO: 00795

INN: 302596404



Rahbar: X.SHukurov

M.O.

«Buyurmachi»

Rishton tuman tibbiyot birlashmasi

Manzili: Rishton shaxar ar roshidoniya 276 uy

Tel./faks

sh/xr: 100022860302247072120054011

byudjetdan mablag' oluvchi STIRi: 200181854

OKONX: 91511

O'zb.Resp.Moliya Vazirligi G'aznachiligi YAgona

G'azna Xisob varagi

G'azna h/r 23402000300100001010

Bankning nomi Markaziy bank Toshkent sh. Bosh boshkarmasi xisob kitob kassa markazi

MFO:00014

g'aznachilik bo'linmasi STIRI: 201122919



Rahbar: A.Usmanov

M.O.

A.Usmanov

**YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN
HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO'G'RISIDA
HUQUQIY XULOSA**

№ EB4653632156

1. Loyihaning turi: SHARTNOMA № 2

2. Loyihaning nomi:

«Abdullaev Axadjon» xususiy korxonasi nomidan rahbari X.Shukurov va ikkinchi tomondan Nizomga asosan ish yurituvchi Rishton tumani tibbiyot birlashmasi (kelgusida «Buyurtmachi» deb ataladi) nomidan rahbar A.Usmanovlar o'rtalarida, umumiy qiymati 142 456 000 (Bir yuz qriq ikki million to'rt yuz ellik olti ming) so'm bo'lgan pudrat shartnomasiga asosan 100-sonli oilaviy poliklinika binosini joriy ta'mirlash ishlarini olib borish yuzasidan 2022 yil iyun oyida tuzilgan № 2-sonli shartnoma

3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma'lumot:

Loyiha «Abdullaev Axadjon» xususiy korxonasi tomonidan ishlab chiqilgan va Rishton tuman Tibbiyot birlashmasi tomonidan markazga huquqiy ekspertizadan o'tkazish uchun qayta 22.06.2022 yilda kiritilgan.

4. Loyiha bo'yicha taklif:


Loyiha amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan.

Yuqoridagilarni inobatga olib, huquqiy ekspertizadan o'tkazish natijalariga ko'ra

XULOSA:

Loyiha O'zbekiston Respublikasining "Xo'jalik yurituvchi sub'yektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida" gi qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 27.09.2018 yildagi PQ-3953-sonli qarori hamda O'zbekiston Respublikasi Budget kodeksining 122-moddasi 8-bandi talablariga muvofiq ishlab chiqilgan hamda uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

Markaz bosh yuristkonsulti



D.Aliboyev